

**“AMERIKA FOJIASI” ROMANIDA AYOL OBRAZI****Muzaffar Murodovich Raximov**

Gumanitar yo‘nalishlarda chet tili kafedrası katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6509581>

**ANNOTATSIYA:** Badiiy obraz borliqning badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o‘sha borliqning oddiygina aksi emas, u borliqning san‘atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Badiiy obraz o‘zida aql va hisni uyg‘un birlashtiradiki, shu bois uni ratsional va emotsional birlik sifatida tushuniladi. Ayol obrazi ham ko‘pgina jahon va o‘zbek asarlarida talqin qilingan, hamda yoritilgan. Ushbu maqolada ham muallif bestseller asrlardan biri hisoblangan “Amerika Fojiasi” romoni tahlilida ayol obrazi ifodalagan.

**Kalit so‘zlar:** tasvir, san‘at asari, ayol qiyofasi, yorug‘lik, badiiy obraz

Teodor Drayzer tasvirlagan muhit sharq hayoti uchun ancha uzoq. Sharqda oila muqaddas hisoblanadi. Oilada ota-onaning o‘rni katta. Ular tarbiyaning ilk o‘chog‘i. farzandlarga hayot haqida, qanday yashash to‘g‘risida qimmatli o‘git bera oladigan insonlardir. Oilada oilaga bo‘lgan ishonch, hurmat shakllantiriliadi. Oilaning qadrini bilgan inson esa oilasiz yashay olmaydi. U g‘arb hayotida ustun bo‘lgan “erkinlik”ni oilaviy baxtga alishmaydi. Bu erkinlik sharq odami uchun kulfatdir. Osiya ayollari uchun Gortenziya kabilarning hayoti axloqsizlikning namunasi hisoblanadi. Ular bunday yashashdan uyalishadi. Osiyoda hech qachon o‘zgalar taqdiriga befarq qaralmaydi. Shu yo‘l bilan yoshlar tarbiya qilinida. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” deyilganidek, noma‘qul harakat qilayotgan odam borki, unga uchragan Yoshi ulug‘ inson nasihat qilishi va uni yo‘ldan qaytarishi farzdir. Odamlar bir-birini o‘zi tarbiyalaydi. Jamiyat uchun qonun-qoida ham insonlarning o‘zidir. Hech bir davlat qonuni odamlar fikrichalik qudratga ega emas. Jamiyat a‘zolari o‘zgalar fikrini o‘ylab qadam tashlashadi. Shuning uchun Drayzer yozgan muhit anchayin bizni hayratga solidi. O‘z farzandlari hayotiga aralashish huquqiga ega bo‘lmagan ota-onalarni ko‘rib hayron qolamiz. Sharqda esa bola yetmish yoshida ham ota-onasi uchun go‘dak.



Adib tasvirlagan voqealarda asosiy ayb jamiyat hamda uning a'zolari miyasiga o'rnashib qolgan bo'lmag'ur fikrlarda. O'zini ko'rsatishga bo'lgan intilish, boshqalardan ustun bo'lish asl xudbinono xayollar bo'lib, ular, albatta, insonni chegaradan og'diradi. Har ko'yga solidi. Asar qahramoni Gortenziya Brigs ham oxiri borib o'ziga bo'lgan muhabbati hamda nochorligi bilan yolg'iz qoldi. Adib atayin uning taqdirini yechimsiz qoladi. Qizning hayoti qanday davom etganini o'quvchi o'zi tasavvur qilishi qiyin emas. Zero, xudbinlik insonni pushaymonlikka olib borishi tabiiy.

Roberta Olden – Klayd uchratgan «xonimlar» ichida o'ziga yigitni qattiq bog'lab olgan, uning taqdiriga yashindek ta'sir etgan ayol edi. Klayd Griffits hayotida bu ayolga qadar sira chorasiz qolmagan edi. U Roberta bilan bo'lgan munosabatida o'zining ustunligiga shu qadar ishonar ediki, istagan vaqtida qizni tashlab keta olishini bilardi.

Roberta Olden kambag'al oilaga mansub soddagina qiz edi. Uning boshqalarda farqi u hali hayotda o'zi kabi yosh qizlar kabi yo'ldan ozmagan sof qiz edi. Ota-onasiga tushadigan og'irlikni yengillashtirish uchun shaharga ishlashga keladi. Bu davrda Klayd badavlat qarindoshlari sabab sexda bo'lim boshlig'i edi.

Gortenziya bilan bo'lgan mushkulotlar va oxirgi halokatdan keyin yigit oilasini tashlab bir muddat sarson kezdi. Nihoyat, amakisini topib keldi. Uning korxonasiga ishga kirdi. Asta uning yashash tarsi o'zgara boshladi. Endi u qizlarning gaplariga laqqa tushadigan yosh yigit emas, u endi boshliq. Tajribali odam. Har qanday ayol uni avray olmaydi. Gortenziya unga yetarli saboq bera oldi. Yigitni o'sha ayollar o'zgartirdi. Endi qizlar unga qancha go'zal ko'rinishmasin, u o'ylab harakat qiladi. sexdagi ko'plab qizlar uning e'tirboriga tushgan bo'lsa-da, ular bilan gaplashishni yig'it o'z mavqeyiga nomunosib ko'radi. Ammo Roberta boshqa masala edi. Bu go'zal qiz ma'sumaligi bilan yigitni o'ziga jalb etardi. Qiz juda sodda edi. Shuning uchun Klayd u hech qachon o'ziga ortiqcha muammo bo'la olmasligini bilardi. Qarindoshlarining baxtli hayoti zavqini keltirgan yigit juda yolg'iz edi. Kimdir unga hamdard bo'lishini juda istardi. Aynan shu intilish uni Robertaga chorlardi.

Qiz sodda bo'lishi bilan birga nihoyatda ehtiyotkor edi. Uning diniy bilimga to'la ongi Klayd kabi yigitlar bilan yaqinlashishni hazm qila olmasdi. U hali chin muhabbatni kutadigan, jamiyatda



sanoqli qolgan qizlar sirasiga kirardi. Ko'chalarda bemalol yurgan yoshlar juftliklari qizni aqlini shoshiorardi. Shunga qaramay ularga befarq qaray olmasdi. Axir, u ayol edi. Ayollarga xos qiziqishlar, istaklar unda ham keragicha topilar edi.

Ayol tabiatida e'tiborga bo'lgan ishtiyoq hech bir jonzotda uchramaydi. Ayollar doimo davralarda hammaning nigohi o'zlarida bo'lishini xohlashadi. Ular uchun eng katta fojea yaqin insonlarining o'zga ayolga nazar solishidir. Robertani ham shu tuyg'u yengdi. U tez orada Klaydning izmiga tushib qoldi. Achinarlisi, Ularning sevgisi qanchalik olovli boshlangan bo'lsa, shunchalik tezgina so'ndi.

Ular ishxonada tanishishdi. Robertaning go'zalligi Klaydni o'ziga tortdi. Sexda undan ham chioroyli ayollar topilardi. Lekin faqat Robertagina Klaydga beparvo qarardi. Shuning uchun yigit bu qizni yoqtirib qoldi va unga erishishga harakat qila boshladi. Tez orada qiz ham unga munosib javob berdi. Ammo Roberta Klayd xohlagaden bir zumlik muhabbatni emas, hayoti davomida birga bo'ladigan insonni tasavvur qilar edi. Shuning uchun bir muddat yigitdan uzoq yurdi. Baribir Klayd g'olib keldi. U qashshoq qizlarni besh qo'ldek bilar, ularni yo'lga solish yo'llari unga ma'lum edi. O'zi ham nochor qatlam vakili bo'lgani holda kamnag'al ayollarga nima kerakligini bilardi. Shu buyumlar bilan Robertani qo'lga oldi. Tez orada u butunlay Klayd izmiga bo'ysuna boshladi. Avvalo, Klayd Roberta xohlagan moddiy buyumlar bilan qizni ta'minlay olardi. Keyin qiz istagandek ko'rkam va obro'li shaxs edi. Undan tashqari Klayd e'tibor bermagan ishxonadagi ko'pgina qizlar oldida Roberta o'zini mag'rurona tutishi uchun ham Klaydga yaqinlashgandi. Roberta Klaydni sevar edi. Unga butunlay ishonib qolgan edi. U aytgan har bir ishni so'zsiz bajarar, hatto, munosabatlarini hammadan sir saqlashga ham rozi edi. U yigitning badavlat qarindoshlari oldida turishga munosib bo'lishini uchun vaqt kerakligini to'g'ri tushnar edi. O'sha kun kelguncha sabr qilardi. Klayddan ajralib qolmaslik yo'lida har narsaga tayyor edi. Ularning muhabbatlari bir kun kelib to'y bilan yakunlanishini kutardi. Roberta Klayd hech qachon uni tashlamasligini ishonardi.

Klayd Robertani qadrlardi, uni qattiq yaxshi ko'rardi. Laekin unga uylanish ni xayoliga ham keltirmasdi. U butun umr qizni baxtli qila oladi, ammo unga ikki dunyoda ham uylanmaydi. Bu haqida o'ylamagan ham. Hattoki, Roberta deb aqldan ozganda ham, uni qo'lga kiritish uchun



yonib-kuyganida ham, qizni o'z uyiga ko'chib o'tishga ko'ndirganida ham sira unga uylanam deb o'ylamasdi. U bir kun kelib boy qizni uchratishni, u tufayli jamiyatning yuqori qatlami davrasiga qadam qo'yishni xohlardi. Bu paytda bechora Roberta nima qilishini o'ylab ham ko'rmasdi. Klayd yolg'iz edi. Unga yakkaligini unuttirish uchun bir yo'ldosh, boshqacha aytganda ermak zarur bo'ldi. To'g'ri, u qizni juda qattiq yaxshi ko'rdi. Unga sira ozor bermadi. Lekin bularning hammasi bir kun tugashini, shu kuni u Robertani yetarli mablag' bilan o'z qishlog'iga kuzatib qo'yishini, u bilan tinchgina aloqani uzishiga ishonardi. Hech narsa yigitni boy qiz bilan bo'ladigan to'yini to'xtata olmaydi. Roberta esa minnatdorlik bilan kelgan joyiga qaytib ketaveradi. Klayd muammoni osongina hal etadi-yu butun umr Amerikaning zodagonlari orasida betashvish umr kechiradi. Qanday yaxshi. Klayd hayotga shunfdasy qaradi. U uchun barbod bo'ladigan bir ayol taqdiri zig'ircha ham achinarli ko'rinmasdi. U Gortenziyadan o'rgangann yagona narsasi shu xudbinlik bo'ldi. Bir ayol bergan saboq sabab boshqa bittasi baxtsizlikka mahkum. Klayd Gortenziya sabab endi ayollarga ishonmay, ularni qadrlamay qo'ygandi. Lekin bu orada kutilmagan musibat uni dahshatga soldi. Roberta keraksiz paytda xomilador bo'ladi. Klayd esa hech ikkilanmay bolani yo'q qilishga kerishadi. Hatto, bo'lajak onaning farzandni dunyoga keltirmoqchiligini o'ylab ham o'tirmaydi. Tezgina undan qutulib, ortidan qizni ham jo'natib yuborishga ahd qiladi. Agar bola bilan birga onasi ham nobud bo'lsa nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Klayd butkul behis mahluqqa aylanadi. Hali tibbiyot yetarli rivojlanmagan mahalda tug'ilmagan go'dakni o'ldirish jinoyat hisoblanadigan davlatda bu ish oson emasdi. Onaning hayoti esa xavf ostida qolishi aniz edi. Klaydni bundan emas, gap aylanib qarindoshlari qulog'iga yetishidan xavotir olardi. Nima bo'lsa ham bu ishga yo'l qo'ymasligi kerak. Endi bir paytlar jondan sevgan ayoli ko'ziga g'alvaning uyasiday ko'rina boshladi. Uni qancha tez yo'qotsa shuncha yaxshi. Qanday qilib unga yo'liqqanini sira anglauy olmay qoldi. Roberta Klaydning oyog'iga chirmashgan yovvoyi chirmovuqday uni bezovta qilardi.

Qiz bo'lsa bu bola sabab yigitni o'ziga uylanishga ko'ndira olishidan xursand edi. Endi Klayd uni tashlab keta olmaydi. To'y qilishadi va baxtli umrlari davom etadi. Lekin yigit har kuni bolani o'ldirishning yangi yo'llarini topib kelganda azoblanardi. Har safar qilgan harakatlari behuda ketgano sayin yigit talvasaga tusha boshladi. Xayolida shu muammoni yechishdan o'zga muddao



qolmadi. Oxiri Robertani qishlog'iga kelkazib yuborishga qaror qildi. Bu ish ham oson emas. Ishonchli yo'l bolani yo'qotish. Tezgina Robertani ham hayotidan o'chirish. Nihoyat, Klayd so'nggi qarorni qabul qildi. Ikkovini ham butunlay yo'q qiladi. shundagina tashvishi ariydi. Butun umr qo'rquvda yashamaydi. O'liklar gapirishmaydi. Bu ona-bola yigitning sirini birga olib ketishadi. Yigitni g'amdan forig' etishadi.

Roberta Klayd unga uylanishini eshitib qanot chiqarib uchay dedi. Adib shu voqealarni tasvirlar ekan ayollar oila borasida erkaklardan ko'ra mas'uliyatliroq bo'lishlarini, ular uchun farzand hamma narsadan ustun turishini, shu bilan ular erkaklardan ustun ekanliklarini isbotlaydi. Klayd uchun bosh og'rig'I bo'lgan bolakay qiz uchun borliqqa aylanib ulgurgan edi. U sharmandalikni bo'yniga olib bu murg'ak jonni asrab qolmoqchi va bunga yigitni ham undamoqchi bo'ldi. Harakatlari natija bermagach u Klaydni qo'rqitish yo'liga o'tdi. Shundog' ham qil ustida turgan munosabat shu bilan butunlay uzildi. Klayd Roberta yechilamas muammo aknliligiga ishonch hozil qildi. Uylanish haqidagi qarorni Roberta o'z harakatlari mevasi deb bilgani holda u Klaydning rejasini qurboni bo'layotganini xayoliga ham keltirmas edi. Ayollarga xos yana bir jihatni, ishonuvchanlikni shunda ko'rish mumkin.

Klayd o'z rejasini puxta tuzib olgach uni amalga oshirish uchun qulay joy topdi. O'limning u uchun qulay yo'lini topgach qizni sayohatga olib chiqdi. To'ydfan oldingi bu iltifot ayolni eritib yubordi. U endi Klayd boshqa uni azoblamasligidan, oila qurishlari va shu yo'l bilan sharmisorlikdan qutulishidan baxtiyor edi. Chekka, kimsasiz orolda sayr qilayotganlarida ham u hech narsadan shubhalanmadi. Chunki, qiz hayotda eng ko'p ishingani odami bilan o'zini butkul xavfsiz his etardi. Bu damda u ishongan yigit ko'lning eng chuqur va xoli joyini izlayotganidan bexabar edi. Klayd qayiqni ag'darganda ham qiz o'zini qutqarilishini bilardi. Ammo u kutgan ko'maklashuvchi qo'l uzatilmadi. Uning turmush o'rtog'i farzandi bilan yolg'iz qolgan ayolni ko'l hukmiga tashlab badavlat qaylig'i tomon ravona bo'ldi.

Roberta orqali adib aldangan barcha ayollar taqdirini aks ettiradi. O'ylamay qo'yilgan qadam hech qachon yaxshilik keltirmasligini ko'rsatadi. Bu dunyoda Roberta kabi yolg'on tuyg'ularga suyanib qolgan ayolla keragicha topiladi. Ular har bir zamonda, hamma joyda mavjud. Zamon o'zgarar, inson tabiati esa Odam Ato va Momo Havo zamonidagidan unchalik farq qilmaydi. Inson





yaratilgandagi atvori shu kungacha meros bo'lib o'tmoqda. Momo Havoning jannatdan haydali sh voqeasidagi ishonuvchanligi keying avlodlar tabiatida ham qolgan. O'shanda shaytonning Havoni tanlashi ham bejiz emas. Ayol kishining aqli uning miyasida emas, ko'nglidir. Bu esa hozirgi kunda ham shayton yo'ldan ozdirgan odamlar uchun qo'l kelmoqda. Afsuski, Roberta kabilar shu vasvasaning qurboni bo'lmoqdalar. Balki, hamma Klaydlar ham Robertalarni o'ldirishmas, lekin, jisman tirik bo'lsa-da, oxiri kelib hammalari xuddi shu qiz kabi kimsasiz hamda ilojisiz qolishadi.

Klayd Roberta ko'l tubida farzandi bilan o'lim topayotganda yaqinda topgan tanishlari bilan sohilda dam olayotgandi. Endi unda muammo yo'q. Ozgina qo'rquvni hisobga olmaganda hammasi joyida. Bu qo'rquv vijdon azobidan ko'ra qotillik ochilishi va undan keying muqarrar jazodan cho'chish edi. Ammo hech bir qing'ir ish yopig'lig'icha qolmaydi. Asarda voqelar juda tez rivojlana boshlaydi. Ikki-uch kunga qolmay Roberta haqida xabarlar butun olamga mashhur bo'lib ketadi. Ko'ldagi qotillik borasida gazetalar jar sola boshlagach Klayd yanada ko'proq talvasaga tusha boshlaydi. Bu orada u endigina o'zi istagan qizning muhabbatiga erishgan edi. Agar bu gap uning qulog'iga yetsa bari tamom.

Roberta ko'ldan topilgach uning nyaqinlari surishtirila boshlandi. Tez orada gap aylanib Klaydga keldi. Axir, qiz uning qo'lostida ishlagan. Ularning munosabati hammadan sir saqlangan bo'lsa-da, Klayd bir zumda asosiy gumondorga aylandi. Uning sayohati va harakati izquvarlarga shubhali tuyula boshladi. Qandaydir qudratli oqim yigitga qarshi dalillarni qalashtirib tshladi va bir onda u o'zini n ehtiyosizliklari sabab bir necha kunda uning aybini isbotlab berdi. Klaydning gunohlari uni dor ostiga olib borishi ma'lum bo'ldi. Yaqinlari undan yuz o'girishdi. Yigit bilan tanishliklarini tan olishdan ham bosh tortishdi.

This article describes the image of imaginary diseases in the stories of Edgar Allan Poe and the reasons for writing about diseases. The allegory and symbolism by depicting the Red Death.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Akhmedovna, B. M., & Shakhnoza, B. (2022). The Image of Disease in Edgar Allan Poe's "The Masque of the Red Death". *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(1), 19-22.



The article is devoted to the analysis of the *The Magic Hat* book, written by popular Uzbek writer Khudoyberdi Tukhtaboyev, from the position of classification elements introduced by the famous Russian philosopher, literary critic and scholar Mikhail Mikhailovich Bakhtin.<sup>2</sup>

The depiction of natural landscapes given in works of art is one of the factors that demonstrate the creative artistic skill.<sup>3</sup>

В современной методике так же, как и много лет назад, актуальной и нерешенной до сих пор остается проблема поиска и выбора наиболее эффективных и рациональных методов преподавания иностранных языков, соответствующих современным условиям обучения и отвечающих требованиям стандартов современного образования.<sup>4</sup>

The article describes in detail the basics of translation theory, the object of research, and the methods of analysis of translation theory.<sup>5</sup>

The aim of the present study was to determine whether an association exists between the duration of menopause and the age of menopause onset, and the differences in bone mineral density (BMD) in postmenopausal women.<sup>6</sup>

This lesson plan format moves from teachers to centered student. In order to keep this standard lesson plan format from becoming monotonous, it is seminal to memorize that there are a number of variations that can be applied within the various segments of the lesson plan format.<sup>7</sup>

This article deals with the analysis of pastiche in literature, particularly in "The Lightning Thief" by American author Rick Riordan. The research identifies pastiche as a term, which is

<sup>2</sup> Kadirova, N. A. (2020). ANALYSIS OF TRANSFORMATION MOTIFS IN THE MAGIC HAT BOOK BY KHUDOYBERDI TUKHTABOYEV, THROUGH THE PRISM OF MIKHAIL BAKHTIN'S THEORIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 405-408.

<sup>3</sup> Kabilova, F., & Tokhirovna, T. K. English Translation of Abdullah Qadiri's Novel "Days Gone by" and Its Reflection Skills. *International Journal on Integrated Education*, 3(10), 304-306.

<sup>4</sup> Абдуллаева, Л. С., Самадова, С. А., & Махмурова, М. (2014). Современные методы преподавания иностранных языков. Коммуникативный метод. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (6), 73-76.

<sup>5</sup> Gafurovna, R. Z. (2021). Translation Theory: Object of Research and Methods of Analysis. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 24(2), 35-40.

<sup>6</sup> Najmutdinova, D. K., Nurmukhamedova, L. S., Alieva, D. A., Maksudova, D. S., & Nosirova, Z. A. (2016). Study of the effects of the age at menopause and duration of menopause on bone mineral density in postmenopausal women in Uzbekistan. *International Journal of Biomedicine*, 6(1), 38-40.

<sup>7</sup> Nodirovna, N. N., & Temirovna, P. M. (2022). Principles of designing lesson plans for teaching ESL or EFL. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 5, 10-12.



applied to a literary work that is a broad mixture of things-such as themes, concepts, and characters-imitated from different literary works.<sup>8</sup>

This article is devoted to the study of Somerset Maugham's short story "The Book Bag". It mainly focuses on the analysis of moral and immoral issues, emphasizing to the matter of incest and its fatal outcomes.<sup>9</sup>

The relevance of speech and culture in the present day is considered important in linguistics and its areas of study are becoming more and more comprehensive day by day.<sup>10</sup>

В этой статье дается краткий обзор антропонимов, их функций статуса, который они получают от этих, и их специфики.<sup>11</sup>

The article is about the development of the Soviet era of Uzbek educational dictionary. The educational dictionaries created during this period served mainly to teach Russian in national schools.<sup>12</sup>

This article deals with the description of synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek language published in different periods, the systematic description of the similarities and differences between the explanations of synonyms in the publications.<sup>13</sup>

The Constitution of the Republic of Uzbekistan defines the right of citizens to vote and to be elected, the foundations of the national electoral system, the basis of which are the Universal Declaration of Human Rights, the International Covenant on Civil and Political Rights and

<sup>8</sup> Khabibullaeva, R. M. (2020). ANALYSIS OF PASTICHE IN THE NOVEL "THE LIGHTNING THIEF" BY RICK RIORDAN. *Theoretical & Applied Science*, (5), 958-961.

<sup>9</sup> Куницька, І. (2014). Роман-біографія як жанровий різновид модерністського роману (С. Моем Місяць і мідяки). *Сучасні літературознавчі студії*, (11), 342-348.

<sup>10</sup> NARZIYEVA, I. Z. (2021, March). COMPARATIVE STUDY OF THE CULTURAL AND NATIONAL CHARACTERISTICS OF MODERN UNITS OF ORAL SPEECH (based on Uzbek and English language materials). In *E-Conference Globe* (pp. 285-289).

<sup>11</sup> Орипова, К. (2022). ОНОМАСТИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 8(8). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4712](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4712)

<sup>12</sup> Bakhridinova, B. M. (2020). HISTORY OF CREATING FIRST BILINGUAL AND REGULATORY EDUCATIONAL DICTIONARIES IN UZBEK LANGUAGE. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(1), 147-181.

<sup>13</sup> Rustamovna, M. G. (2020). Presenting synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek language. *Middle European Scientific Bulletin*, 6, 117-120.





ratification by Uzbekistan, constituting the principles of democracy, including independence, legitimacy, transparency and fairness, enshrined and recognized in other international legal instruments.<sup>14</sup>

This article discusses an attitude to women in the past and the interpretation of the image of women in the works of some writers.<sup>15</sup>

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhmedovna, B. M., & Shakhnoza, B. (2022). The Image of Disease in Edgar Allan Poe's "The Masque of the Red Death". *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(1), 19-22.
2. Kadirova, N. A. (2020). ANALYSIS OF TRANSFORMATION MOTIFS IN THE MAGIC HAT BOOK BY KHUDOYBERDI TUKHTABOYEV, THROUGH THE PRISM OF MIKHAIL BAKHTINS THEORIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 405-408.
3. Kabilova, F., & Tokhirovna, T. K. English Translation of Abdullah Qadiri's Novel "Days Gone by" and Its Reflection Skills. *International Journal on Integrated Education*, 3(10), 304-306.
4. Абдуллаева, Л. С., Самадова, С. А., & Махмурова, М. (2014). Современные методы преподавания иностранных языков. Коммуникативный метод. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (6), 73-76.
5. Gafurovna, R. Z. (2021). Translation Theory: Object of Research and Methods of Analysis. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 24(2), 35-40.
6. Najmutdinova, D. K., Nurmukhamedova, L. S., Alieva, D. A., Maksudova, D. S., & Nosirova, Z. A. (2016). Study of the effects of the age at menopause and duration of menopause on bone mineral density in postmenopausal women in Uzbekistan. *International Journal of Biomedicine*, 6(1), 38-40.

<sup>14</sup> Tolibjonovich, M. T., & Toxirjonovich, S. D. (2021). The Institutional Mechanisms Of The Development Of The Electoral System In Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(8), 4378-4384.

<sup>15</sup> Muradovich, R. M. (2021). The Image of a Woman in The Work of Uzbek Writers. *Eurasian Research Bulletin*, 3, 7-12.



7. Nodirovna, N. N., & Temirovna, P. M. (2022). Principles of designing lesson plans for teaching ESL or EFL. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 5, 10-12.
8. Khabibullaeva, R. M. (2020). ANALYSIS OF PASTICHE IN THE NOVEL "THE LIGHTNING THIEF" BY RICK RIORDAN. *Theoretical & Applied Science*, (5), 958-961.
9. Куницька, І. (2014). Роман-біографія як жанровий різновид модерністського роману (С. Моем Місяць і мідяки"). *Сучасні літературознавчі студії*, (11), 342-348.
10. NARZIYEVA, I. Z. (2021, March). COMPARATIVE STUDY OF THE CULTURAL AND NATIONAL CHARACTERISTICS OF MODERN UNITS OF ORAL SPEECH (based on Uzbek and English language materials). In *E-Conference Globe* (pp. 285-289).
11. Орипова, К. (2022). ОНОМАСТИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 8(8).  
извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4712](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4712)
12. Bakhridinova, B. M. (2020). HISTORY OF CREATING FIRST BILINGUAL AND REGULATORY EDUCATIONAL DICTIONARIES IN UZBEK LANGUAGE. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(1), 147-181.
13. Rustamovna, M. G. (2020). Presenting synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek language. *Middle European Scientific Bulletin*, 6, 117-120.
14. Tolibjonovich, M. T., & Toxirjonovich, S. D. (2021). The Institutional Mechanisms Of The Development Of The Electoral System In Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(8), 4378-4384.
15. Muradovich, R. M. (2021). The Image of a Woman in The Work of Uzbek Writers. *Eurasian Research Bulletin*, 3, 7-12.